

## Muammoli, muhim ma'ruza

"Qishloq va suv xo'jaligining energiya ta'minoti" fakulteti 5430500-Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti ta'lif yo'nalishi 2 kurs 202 guruh talabalariga 2020 yil 22 fevral kuni "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasining taklifiga ko'ra, Toshkent issiqlik elektr stansiyasi (TashGRES), Issiqlik olish sexi injener energetigi I.Shukurov "Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarни tahlil qilish uslublari va jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash" mavzusi bo'yicha TashGRES misolida muammoli ma'ruza o'tib berdi.

I.Shukurov Toshkent issiqlik elektr stansiyasida elektr energiyasini xosil qilish va buning uchun har qanday ishlab chiqarish korxonalarida birinchi navbatda texnika va elektr xavfsizlik qoidalariiga e'tibor berish kerakligini aytib o'tdi.

O'zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarishda, uzatishda va elektr energiyasini boshqa turga aylanishida inson uchun barcha hollarda baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berib o'tdi. Ayrim holatlarda baxtsiz hodisalar sabab jarohatlanish ro'y berganda ularga birinchi yordam ko'rsatish va bu holatlar bo'lmagligi uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi tushuntirildi.

I.Shukurov tomonidan o'tilgan dars mashg'uloti qiziqarli va savol javoblarga boy bo'ldi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar mutaxassis tomonidan yetarlicha javoblar olishdi.



ETvaEJF kafedrasi dotsenti O'. Xaliquzzarov axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov